

# Termiz shahrida muborak Ramazonning iftorlik tadbirlarini o‘tkazish davom etmoqda



Termiz shahrida muborak Ramazonning iftorlik tadbirlarini o‘tkazish davom etmoqda

Ramazon oyi Qur’oni karim barokati, go‘zal xulqning fazilatlari bilan ziynatlangan muqaddas oydir. Bu ulug‘ oyda qilinayotgan duolar ijobat bo‘ladi, ibodat va xayrli amallarning ajri yuksaladi.

Xayru-barokat Ramazon oyida bugun 6 aprel kuni shaharning to‘rtta sektor hududida “O‘zbekiston”, “Surxon sohili”, “Turon” va “Namuna” mahallasi fuqarolari ishtirokida navbatdagi iftorlik tashkil etildi. Unda sektor mas’ullari, mahalla bosh imom xatibi, mahalla fuqarolar yig‘ini raislari, mahalladagi hokim yordamchilari hamda mahallada yashovchi fuqarolar ishtirok etishdi.

Ushbu xayrli ishlar shahardagi barcha mahallalarda davom etmoqda.





Image not found or type unknown






Image not found or type unknown

